IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA QASHQADARYO TEATRI FAOLIYATIDA TARG‘IBOT MASALALARI

G’aniyev Boburjon Ilhom o’g’li
Qarshi davlat universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ulug’ vatan urushi” yillarida Qashqadaryoda teatri faoliyati, uning repertuar siyosati, targ’ibot ishlarida faol ishtiroki yoritib berilgan. Shuningdek, bu davrda rus drama teatrining tuzilishi, G’uzor tumanida dehqonlar teatr truppasi va Chiroqchi tumanidagi musiqiy havaskorlik to’garagining faoliyatiga ham to’xtalib o’tilgan. Urush yillarida teatr faqat xordiq chiqarish vositasi emas, balki xalqni g’oyaviy birlashtiruvchi va ruhlantiruvchi kuch ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: “Ulug’ vatan urushi”, targ’ibot brigadalari, rus drama teatri, konsert, Mulla To’ychi Toshmuhamedov, Ikroma Boltayeva, dehqonlar teatri, A.K.Barovskiy

Аннотатция: В данной статье рассматривается деятельность театра в Кашкадарье в период Великой Отечественной войны, его репертуарная политика и активное участие в пропагандистской работе. Также затрагиваются вопросы формирования русского драматического театра в этот период, деятельность крестьянской театральной труппы в Гузарском районе и кружка любительской музыки в Чиракчском районе. Утверждается, что в годы войны театр был не только средством развлечения, но и идеологической объединяющей и вдохновляющей силой для народа.

Ключевые слова: «Великая Отечественная война», пропагандистские бригады, русский драматический театр, концерт, Мулла Туйчи Тошмухамедов, Икрома Болтаева, крестьянский театр, А. К. Баровский

Abstract: This article examines theatrical activity in Kashkadarya during the “Great Patriotic War” focusing on repertoire policies and active participation in propaganda efforts. It also discusses the structure of the Russian drama theater during this period, as well as the activities of a peasant theater troupe in the Guzar district and a musical amateur group in the Chirakchi district. The article demonstrates that, during the war years, the theater served not merely as a source of entertainment but as a force that ideologically united and inspired the people.

Keywords: “Great Patriotic War”, propaganda brigades, Russian Drama Theater, concert, Mulla Toychi Toshmuhamedov, Ikroma Boltayeva, peasants' theater, A. K. Barovsky

Kirish. Ikkinchi jahon urushi tarixdagi qonli fojialardan biri bo‘lib, 1939-yil 1-sentabrda fashistik Germaniyaning Polshaga hujum qilishi bilan boshlandi. 1941-yil 22-iyunda esa Sobiq Sovet Ittifoqiga qarshi keng ko‘lamli harbiy harakatlar amalga oshirildi. Xalqimizning ma’naviy-ruhiy qudrati, siyosiy kamolati, jasorati va bardoshi urushda fashistlar Germaniyasi ustidan g‘alaba qozonishda muhim omil bo‘ldi. Vatan mustaqilligi xavf ostiga qolgan kezlarda hamma kasb egalari qatori san’at xodimlari, uning asosini tashkil etgan teatr jamoalari ham o‘zlarining butun kuchi, diqqat-e’tiborini dushmanni tezroq tor-mor etishga qaratdi. San’at xalqniki bo‘lganligi uchun urush yillarida ham san’at xalqqa, xalq san’atga yanada yaqinlashdi. Og‘ir yo‘qotishlar, qiyinchiliklarga qaramay, xalqimiz teatr san’ati sohasida ham katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Ozodlik va tinch hayot Vatan ozodligi bilan chambarchas bog‘langanligini urush yillarida har bir kishi, har bir teatr san’ati ustasi yanada chuqurroq his etdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimli yondashuv, xolislik tamoyili kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokamalar. Ikkinchi jahon urushi yillarida teatrlar faoliyati tubdan o‘zgardi. Ular harbiy-siyosiy vaziyatga moslashib, yangi repertuarlar asosida faoliyat olib bordi. Urush yillarida teatr san’ati arboblari ham fashizmga qarshi kurashda oldingi saflarda bo‘ldilar. Mazkur davrda O‘zbekiston hududida 51 ta teatr faoliyat ko‘rsatdi. Ularning 35 tasi mahalliy, 16 tasi evakuatsiya qilingan teatrlar edi.[2] 1940-yil 16-noyabrda SSSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi San’at ishlari qo‘mitasi teatrlar bosh boshqarmasining “Teatrlarning yangi sahna asarlarini tayyorlash ustida ishlash tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomasi tasdiqlandi. Mazkur yo‘riqnomada ittifoqqa bo‘ysunuvchi hamda birinchi va ikkinchi tarif guruhidagi teatrlarni amaliyotga joriy etilishi belgilab qo‘yildi. Ushbu ko‘rsatma teatrlar faoliyatini tartibga solish, tejamkorlikka erishish va ularni moddiy-texnik jihatdan ta’minlashni yaxshilash bo‘yicha yuqori tashkilotning rasmiy hujjati hisoblangan.[3]

1941-yilning 27-sentyabrida Toshkent shahrida O‘zbekiston xotin-qizlarining ko‘p ming kishlik mitingi bo‘lib o‘tdi. Unda xalqning sevimli san'atkori Sora Eshonto‘rayeva o‘sha davrdagi murakkab vaziyatni e'tirof etib, quyidagicha fikr bildirgan edi: Mamlakatimizda xalqlarning milliy madaniyati tobora jilolanmoqda va yashnamoqda. Xalqimiz iste'dodlarni mehr bilan voyaga yetkazmoqda va qo‘llab-quvvatlamoqda. Jamiyatimiz san'atni, adabiyot va musiqani nihoyatda qadrlaydi. Urush esa xalqimizni o‘zining madaniy hayotidan, ijodiy erkinligidan mahrum mahrum qilmoqchi. Shuning uchun butun kuchimizni fashistlarga qarshi kurashga qaratamiz!”[1] Teatr xodimlari urushning dastlabki kunlaridanoq frontlardagi jangchilar, gospitallar, sanoat korxonalari, qishloq ahli uchun madaniy xizmat qilish maqsadida maxsus konsert dasturlari tayyorladilar. Shu bilan birga sanoat korxonalari, temir yo‘llar, dehqonlar uchun homiylik ishlarini yo‘lga qo‘ydilar. Harakatdagi armiyaga, chaqiruv punktlariga, zaxira kuchlarga, shifoxonalarga xizmat qilish maqsadida maxsus konsert brigadalari tuzdilar.

Teatr san’ati ustalari kishini hayajonlantiruvchi sahna asarlari, maxsus konsert dasturlarini tayyorlab frontlarda, respublika, viloyat va tumanlarda bo‘ldilar, jangchilarga va xalqqa ma’naviy quvvat bag‘ishladilar. Urush arafasida O‘zbekiston hududida teatrlar soni 45 tani tashkil etgan bo‘lsa, urushning eng og‘ir damlari, ya’ni 1942-yilda ular soni 35 ta, 1943-yilda esa 34 tani tashkil etdi. Teatrlar soni qisqargan bo‘lsa-da, lekin ularning xizmat doirasi kengaydi. 1943-yilda Qashqadaryo viloyati qayta tuzilgan kezlari respublikaning uch teatri Qashqadaryo mehnatkashlariga madaniy xizmat qildi.[4]

1940-yilda Qarshi davlat teatri jamoasi tomonidan Safarovaning “Uyg‘onish”, Hamzaning “Maysaraning ishi”, “Jaholat”, Fridrix Shillerning “Makr va muhabbat”, “Farhod va Shirin”, “Vafodorlar” hamda “Suv narxi” asarlari sahnalashtirildi.[5] Mazkur davrda Qarshi davlat teatri repertuaridan o‘rin olgan asarlar Vahidov, Mustafaqulov, Alimov va Mahmudov kabi rejissyorlar sayi harakati bilan sahna yuzini ko‘rdi. Spektakllarning sahna bezaklarini yaratishda Margukov, Zaverzin, Axmedov va Monskov kabi rassomlar faol bo‘ldi. Teatr sahnasida bunday rang-barang va mazmunli asarlarning qo‘yilishi tasodifiy bo‘lmay , balki bu o‘sha davr madaniy siyosati, jamiyatning ma’naviy ehtiyojlari hamda teatrlar oldiga qo‘yilgan davlat darajasidagi vazifalar bilan bog‘liq bo‘lgan. Urushning og‘ir kunlarida odamlarning ruhini tushirib yubormaslik, ularga ma’naviy quvvat berish hamda g‘alabaga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashda san’at asosiy qurollardan biri hisoblangan. F.Shillerning “Makr va muhabbat” yoki “Farhod va Shirin” kabi asarlar orqali insonparvarlik, mardlik, o‘z yurtiga sadoqat tuyg‘ulari ulug‘lanib, xalqni front hamda orqa frontdagi fidoyi mehnatga ruhlantirilgan. O‘sha davrda teatr odamlarga hordiq chiqarish maydoni emas, balki urush sharoitida mafkurani ushlab turuvchi, jamiyatdagi turli sinf vakillarini ruhlantiruvchi kuch sifatida xizmat qilgan.

1941-yil 26-noyabrda Qarshi shahar mehnatkashlar deputatlari ijroiya qo‘mitasining majlisida Buxoro okrugi san’at bo‘limi mudiri Semin Qarshi davlat shahar teatri binosi “avariya” holatiga kelib qolgani sababli teatr faoliyati vaqtincha to‘xtatilganini ma’lum qilgan bo‘lsada, maxsus tuzilgan komissiyaning xulosasiga ko‘ra, tegishli profilaktik choralar ko‘rilgan taqdirdagina teatr binosidan 1941-1942 yillarda ham foydalanishni davom ettirish mumkin edi. Mazkur davrda teatr jamoasi 60 nafar xodimdan iborat bo‘lib, ularning 6 nafari ma’muriy-boshqaruv apparatida, 10 nafari ishlab chiqarishda faoliyat yuritdi. Qolgan 32 nafari aktyor va musiqachilar, 12 nafari esa xizmat ko‘rsatuvchilarni tashkil etdi.[6] Bu davrda teatrning yetakchi aktyorlaridan biri Qori Zokir Sodiqov bo‘lib, unga sahnadosh sifatida Muxtarama Nosirovalar faoliyat olib bordi. Qori Zokir Sodiqov “Tohir va Zuhra” spektaklida Boboxon, “Gulsara”, “Boy ila xizmatchi” hamda “Layli va Majnun” kabi sahna asarlarida ham yetakchi rollarni ijro etgan. Ayniqsa, uning “Arshin mol olon” spektaklidagi Sultonbek obrazi alohida shuhrat qozongan. Bu davrda Qarshi shahar teatri nafaqat bevosita sahna faoliyati bilan shug‘ullangan, balki turli hududlarda targ‘ibot ishlarini ham olib borgan.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan 1943-yil 20-yanvarda O‘zbekiston SSR tarkibida Qashqadaryo viloyati qaytadan tashkil etildi. Mazkur yilda teatr hayotida katta voqea yuz berib, o‘zbek musiqa san’atining asoschilaridan biri, atoqli xonanda Mulla To‘ychi Toshmuhamedovning xotirasi abadiylashtirish maqsadida teatrga ustoz san’atkorning nomi berildi.[7]

1943-yilning may oyigacha Qashqadaryo viloyati teatri 5 ta asarni sahnalashtirib, keng namoyish qildi. Bundan tashqari, teatr jamoasi front oyliklariga faol qatnashdi va navbat bilan tumanlarga madaniy xizmat qildilar. Teatr jamoasi aholiga xizmat qilish uchun ikki gruppaga bo‘linib, konsert brigadalari tuzdilar. Birinchi konsert brigadasi 15 kishidan iborat bo‘lib, uning tarkibida Nosirova, Ahmadjonova, Sattarov kabi talantli yosh sahna ustalari bor edi. Bu brigada Beshkent tumani dehqonlariga xizmat qilib, o‘nlab konsertlar

uyushtirdilar. Ikkinchi konsert brigadasi 14 kishidan iborat bo‘lib, ular Koson tuman mehnatkashlariga xizmat qildilar. Teatrning boshqa xizmatchilari Qarshi tumani Kat qishlog‘idagi dehqon xo‘jaliklaridan biriga ishga safarbar etildi. San’at ahli sinovli yillarda ham g‘alla o‘rdilar, ham g‘o‘za ishloviga qatnashdilar, ham kechqurunlari aholi orasida konsert ko‘rsatdilar. Shuningdek, havaskorlik to‘garaklariga ko‘maklashdilar, targ‘ibot ishlari bilan shug‘ullanuvchilarga yordam berdilar. 1944-yilning bahor oylarida viloyat sahna xodimlari mehnatkashlarning madaniy dam olishi uchun uchta konsert brigadasi tuzdilar. Konsert brigadalari fevral va mart oylari davomida 7 ta tumanning 140 ta xo‘jaliklarida bo‘lib, maxsus dastur asosida paxtakorlarga, g‘allakorlarga, chorvadorlarga, mexanizatorlarga o‘zlarining san’atlarini 156 marta namoyish etdilar. Bu konsertlarda 56 300 aholi ishtirok etdi. Bulardan tashqari, pesalar tayyorlab tomoshabinlarga qo‘yib berdilar va xalq olqishiga sazovor bo‘ldilar. Teatr jamoasi 1944-yilning birinchi yarmida qo‘shimcha ikki asarni sahnalashtirgan bo‘lsa, 1945-yilning iyun oyigacha viloyat musiqali drama teatri jamoasi Komil Yashinning “Nurxon”, “Oftobxon”, Hamzaning “Boy ila xizmatchi”, “Qaltis hazil”, Sobir Abdullaning “Qurbon Umarov”, “Tohir va Zuhra” kabi asarlarini sahnalashtirdilar. Ham tarixiy, ham o‘z davri voqealari yoritib berilgan ushbu sahna asarlarini tomoshabinlar yaxshi kutib oldi. Bu asarlarni namoyishida Bahrom Kamolov, Mukarrama Ahmadjonova, X. Pinxasova, Muhtarama Nosirova, Ikroma Boltaeva[8] kabi yosh talantlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Teatr jamoasi bu bilan kifoyalanib qolmadilar, bevosita paxta va g‘alla dalalariga chiqib, mehnatkashlarga konsertlar qo‘yib berdi.

Urush yillarida rus tilida so‘zlashuvchi aholining talab va ehtiyojlarini hisobga olib, Xalq Komissarlar Kengashi huzuridagi San’at ishlari bo‘limi 1945-yilda Qarshi shahrida Rus drama teatri tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Ochilishi kerak bo‘lgan yangi teatrning badiiy rahbari va direktori qilib A. K. Barovskiy tayinlandi. Afsuski, mablag‘ yetishmasligi sababli teatr

binosi qurish kechikdi, shuningdek, rus tilida so‘zlashuvchi aholining katta qismi o‘z joylariga qayta ko‘chirilishi tufayli Qarshi shahrida Rus drama teatri tashkil etish imkoniyati bo‘lmadi. Teatrning 1941–1945 yillardagi faoliyatiga oid arxiv hujjatlari yoki ma’lumotlar saqlanib qolmagan yoki aniqlanmagan. Lekin, Qashqadaryo viloyat arxividan topilgan 1947-yilga oid hujjatlarda Qarshi shahrida rus drama teatrining faoliyati haqidagi ma’lumotlar qayd etilgan. Bu esa teatrning tashkil etilish jarayoni murakkab kechganiga qaramay, urushdan keyingi yillarda o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yganidan dalolat beradi.[9]

Viloyat aholisiga madaniy xizmat ko‘rsatish maqsadida respublika, viloyat va tumanlarda badiiy havaskorlik to‘garaklariga, xalq ijodi uylariga, badiiy havaskorlik brigadalariga ham alohida e’tibor berildi. Chiroqchi tumanidagi “Yangi turmush” dehqon xo‘jaligiga qarashli Langar tog‘ qishlog‘ida yoshlardan “Jonim fido” nomli ansambl tashkil etilgan bo‘lib, u Chiroqchidagina emas, hatto Yakkabog‘ va boshqa tumanlarda ham mashhur bo‘ldi. Ansamblda naychi Botirjon Turdiev, doirachi Mahmudjon Toirov, dutorchi Mahkamjon Bozorov, tanburchi Abdurashidjon Karimov, Arslon Gadoev, Abbos Tursunov, Boymirza Nazarov, Najmiddin Sharopov, Xol Sharopov, Xol Pardaev, O‘sar Yoqubov kabi 12 yigit xizmat qilardi. Urush boshlangandan keyin ular qo‘llariga musiqa asboblarini olib, harakatdagi armiyaga jo‘nadilar. Afsuski vatan ozodligi uchun belbog‘lab urushga borgan yigitlarining hammasi ham sog‘ omon qaytmagan. Urush yillarida G‘uzor tumani markazida ham dehqonlar teatri tashkil etilib, unga tumandagi havaskorlik to‘garaklarining talantlari terib olindi. Ular 10 kishidan iborat bo‘lib, xo‘jaliklarda, korxona va muassasalarda, maktablarda xizmat qildilar. Teatr a’zolari raqqos va ashulachilar, musiqachilar, targ‘ibotchilardan tashkil topgan edi. 1943-yilda respublika hududida 670 dan ortiq badiiy havaskorlik to‘garaklari ish olib borgan bo‘lsa, shulardan 18 tasi Qashqadaryo viloyatida xizmat qildi.

1944–1945 yillarda Qashqadaryo viloyati musiqali va komediya teatrida jami 168 nafar xodim faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning 67 nafarini badiiy-ijodiy kadrlardan bo‘lishi og‘ir harbiy davrda ham teatrning to‘laqonli ijodiy faoliyat yuritganidan dalolat beradi.[10] Bu davrda teatr nafaqat viloyat markazi, balki uzoq qishloqlar, paxta dalalari, sanoat korxonalari va harbiy gospitallarda ham faol ijodiy safarlarda bo‘ldi. Jamoa repertuaridan xalqning vatanparvarlik ruhini ko‘taruvchi, dushmanga qarshi nafrat va g‘alabaga ishonch uyg‘otuvchi asarlar o‘rin oldi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Ikkinchi jahon urushi yillarida Qashqadaryo viloyati teatrlari va badiiy jamoalari o‘ta og‘ir iqtisodiy-ijtimoiy sharoitga qaramasdan, ulkan targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirdilar. Professional teatrlarning boy tajribasi havaskorlik jamoalari orqali keng xalq ommasiga yetkazildi va bu urush davrining og‘ir sinovlarida kishilarga ulkan ma’naviy madad berdi. Badiiy havaskorlik harakati va konsert brigadalarining faoliyati professional teatr san’ati bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanib, urush davri madaniy hayotining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Urushning so‘nggi bosqichiga kelib teatr jamoalarining barqaror faoliyat ko‘rsatishi orqa frontda sog‘lom ma’naviy muhitni saqlab qolish, aholining ishonchini mustahkamlash hamda ularni umumiy g‘alaba sari safarbar etishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qildi. Bu davrda orttirilgan ijodiy tajriba nafaqat urush yillaridagi g‘oyaviy ehtiyojlarni qondirdi, balki keyingi yillarda Qashqadaryo viloyati teatr san’atining yanada ravnaq topishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Qizil O’zbekiston” gazetasi, 1941-yil 28-sentabr soni
2. O‘zbekiston Respublikasi MDA R-2087 fond, 1-ro‘yxat, 100-ish, 8-varaq
3. Qashqadaryo VDA, 11-fond, 1-ro‘yxat, 21-ish, 1-varaq

4. S.Turdiyev. “Jasorat solnomasi” – Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2008.– B 321

5. Qashqadaryo VDA, 11-fond, 1-ro‘yxat, 15-ish, 32-varaq

6. Qashqadaryo VDA, 11-fond, 1-ro‘yxat, 28-ish, 38-varaq

7. uz.wikipedia.org sayti ma’lumotnomasi

8. Ismoil To’xtamishev. Bu gulshan sahnida. 1-jild – Toshkent “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2006. – B. 176.

9. Qashqadaryo VDA. S-186 fond, 1-ro‘yxat, 3-ish, 16-varaq (Кашкадаринский областной государственный русский драматический театр)

10. Ergasheva Y, Safarova Z. “Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston madaniyati” – Toshkent, “Vors - nashriyot”.2020. B. 115

11. M.To‘rayeva. “O‘zbekiston janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi (1920–1945 yillar)” – Toshkent, “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2023